


NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart)


Viloyat bo'yicha 2019 yilning yanvar- mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2090,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 243,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 58,9 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1847,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,5 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 245,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 foizga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on, Chust, To'raqo'rg'on va Pop tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)

2018 yil
yanvar- mart



2019 yil
yanvar- mart




■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	243028,1	158,9	1847748,4	102,5
Namangan.sh	110941,7	143,8	740799,5	101,0
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	158,6	74,4	40751,6	101,9
Kosonsoy	360,8	85,1	100384,1	104,5
Namangan	179,9	126,1	73700,2	102,7
Norin	4440,8	83,2	178124,7	100,7
Pop	17387,0	142,0	96996,2	104,6
To'raqo'rg'on	11516,9	170,1	140791,0	107,3
Uychi	225,7	102,2	96353,7	102,9
Uchqo'rg'on	29450,0	448,9	79476,1	101,9
Chortoq	2023,3	108,8	88080,1	104,1
Chust	64698,1	192,9	100443,4	102,9
Yangiqo'rg'on	1645,5	19,4	111847,8	104,1

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar- mart oylarida o`tgan yilga nisbatan Viloyatimizning barcha hududlarida o`sinh ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Namangan shahri (1388,6 ming.so`m), Norin (1137,5 ming.so`m) va To'raqo'rg'on (688,9 ming. so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Uychi (464,1 ming.so`m), Chortoq (462,1 ming.so`m), Namangan (422,2 ming.so`m) va Mingbuloq (331,8 ming.so`m) tumanlarida qayd etilgan.

2019 yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 758,1 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 foizga ko`paygan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	758,1	104,8
Namangan.sh	1388,6	103,0
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	331,8	99,7
Kosonsoy	493,1	102,3
Namangan	422,2	100,5
Norin	1137,5	98,4
Pop	531,0	107,0
To`raqo`rg`on	688,9	108,1
Uychi	464,1	100,7
Uchqo`rg`on	646,4	126,4
Chortoq	462,1	102,2
Chust	634,7	123,6
Yangiqo`rg`on	532,3	96,0

2019 yilning yanvar-mart oylarida o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,3 foizni tashkil etib, 27,0 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar oylariga nisbatan 2.4 foizga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 96.1 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 589,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 13,3 foizga ko'paydi

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra 310,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,6 % ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 52,6 % ni tashkil qilmoqda.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	589246,4	113,3	279010,2	161,4	310236,2	89,4
Namangan.sh	310348,7	120,9	144259,9	164,9	166088,8	98,1
tumanlar:						
Mingbuloq	1883,4	79,7	50,2	30,5	1833,2	83,4
Kosonsoy	4285,6	80,4	73,8	31,5	4211,8	82,7
Namangan	11163,2	80,6	162,3	70,0	11000,9	80,8
Norin	804,9	80,6	4,0	13,8	800,9	82,6
Pop	5506,5	80,8	57,4	55,6	5449,1	81,2
To'raqo'rg'on	177422,1	133,0	124968,2	180,6	52453,9	81,7
Uychi	11076,2	79,5	11,7	32,4	11064,5	79,6
Uchqo'rg'on	6306,2	84,4	941,9	127,4	5364,3	79,7
Chortoq	28378,6	81,2	0,0	0,0	28378,6	81,2
Chust	13354,5	64,5	8480,9	57,9	4873,6	80,4
Yangiqo'rg'on	18716,5	80,6	0,0	0,0	18716,5	80,6

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari (foizda)**



Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`shish sur`atida kamayishi kuzatildi: To'rao'rg'on 133,0 % va Namangan.sh -120,9 % tumanlarda ko`paydi.